

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA SPORT TO'GARAKLARINI

TASHKILLASHTIRISH

Yuldashev Ikromjon,
Fakultet Dekani, (PhD)

Otadjonov Doniyorjon
Magistr, Farg'ona davlat universiteti

Mamlakatimizda yuzaga keltirilgan uch bosqichli musobaqalar tizimi o'quvchi-yoshlar, ayniqsa maktab o'quvchilari sportini rivojiga munosib hissa qo'shmoqda.

Istiqlol tufayli Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. Bu islohotlarning bosh maqsadi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdir. Yurtimizda tub o'zgarishlar ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining talablarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Xususan, mustaqillik yillarida ishlab chiqilgan uzluksiz ta'lim tizimi samarali faoliyat ko'rsatmoqda, bunda jumladan, uzluksiz jismoniy tarbiya ham ko'zda tutiladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida xalqimizning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilm-fani va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunga kelib umumiy o'rta ta'lim tizimida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar maktabning jismoniy tarbiya jamoasi orqali, jismoniy tarbiya faollarini tayyorlash va ular faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari tarzida amalga oshiriladi. Bugungi kunda sinfdan tashqari ishlarning mazmuni yetarli darajada boy. Umumiy ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya o'qituvchilari, o'quvchi jismoniy tarbiyasini qayd qilgan shakllarini faqat maktab sport musobaqalari, maktab sport seksiyalarining o'quv guruhlaridagi mashg'ulotlari hamda aholi salomatligini baholash testi bo'yicha yo'lga qo'yiladigan ishlarni tushunib, jismoniy tarbiya jarayonining bunday ko'p ishi shakllaridan amaliyotda nomigagina foydalanmoqdalar holos.

Jismoniy tarbiya va sport bilan ommaviy ravishda shug'ullanish o'quvchi yoshlarning kundalik ehtiyojiga aylanmog'i zarur, shu bilan birga u o'quvchi yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda, ularni barkamol inson bo'lib yetishishga, qonunbuzarlik va boshqa salbiy illatlardan xolos etishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasining - dolzarbligi umumta'lim maktablarida sport to'garaklarini tashkil etishning ayrim pedagogik muammolarni nazariy asoslarni ochib berish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari, murabbiylari va sport ishlari bo'yicha tashkilotchilar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bu magistrlik dissertatsiyasining mavzusi

<https://conferencea.org>

jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sport maktabi murabbiylarining jismoniy tarbiya darsi va sport to'garaklarini olib borish faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida yozilgan ishdir. Sport to'garaklari umumta'lim maktablarida, bolalar va o'smirlar sport maktablarida, tashkil etiladi. Shug'illanuvchi o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash, hamda bu sport to'garaklarini qanday tashkil qilish kerakligi magistrlik dissertatsiyasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra bayon etilgan.

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayoni pedagoglardan maktabda ishlash uchun jismoniy tarbiyaning asosi nimalardan iboratligi, uning mazmuni, tashkil qilinishini, bolalarni harakatga o'rgatish metodikasini bilishni talab qiladi.

Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy tarbiya jarayonining maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi. O'quvchilar jismoniy tarbiyasi jarayonida umumiy va xususiy vazifalar hal qilinadi.

Umumiy vazifalar – bilim berish, jismon tarbiyalash va soglomlashtirishdan iborat bo'lib, xususiylari esa jismoniy tarbiyadan Davlat ta'lim standarti dasturidagi maxsus vazifalar tarzida hal qilinadi.

Xususiy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- 1) o'quvilar organizmining sogligini mustahkamlash, rivojlantirish va chiniqtirish;
- 2) turli xildagi mehnat faoliyatiga tayyor bo'lish uchun shu yoshga xos bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirish;
- 3) hayot uchun kerakli harakat malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirish va keyinchalik kerak bo'ladiganlari bilan qurollantirish;
- 4) o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim me'yorida jismoniy madaniyatga oid yangi nazariy bilimlarni berish va ularni yildan yilga takomillashtirish;
- 5) o'quvchilarni jismoniy mashqlar bilan muntazam shug'ullanishga qiziqtirish va ularda qat'iy odatni shakllantirish;
- 6) o'quvchilarni jismoniy madaniyat faollari qilib tarbiyalash va bu bilan ularda tashkilotchilik qobiliyatini tarbiyalash;
- 7) jismoniy tarbiyani ma'naviy tarbiyaning elementlari: ahloqiy, ruhiy, estetik va mehnat tarbiyasi bilan bog'lish, qadriyatlarimizga oid vazifalar bilan birgalikda o'quvchilar yoshining ulg'ayishi, jismoniy tayyorgarligining ortishini e'tiborga olib, o'qitishning ayrim bosqichlariga aniqliklar kiritish va boshqa qator vazifalar.

Bu vazifalar ma'naviy tarbiyaning elementlari xisoblangan axloqiy ruhiy estetik va mehnat tarbiyalarining vazifalari bilan birgalikda o'quvchilarni yoshini ulg'ayishi, jismon tayyorgarligiga qarab o'qitishning ayrim etaplarida aniqliklar

kiritiladi va maktab yoshining quyidagi 3 xil guruhidagi ta'lim tarbiya ishlarida hal qilinadi. Maktab yoshining 6 (7), (10) 11 yoshlarida (1-4 sinflar) o'quvchilar organizmi tabiiy rivojlanishida bo'ladi. Biz uni garmonik rivojlanishini yo'lga qo'yishimiz kerak bo'ladi. Markaziy nerv tizimidagi boshqarish funktsiyasi, harakat tayanch apparati faoliyati ishini, yurak-tomir, nafas olish organlari ishini yanada rivojlantirishga e'tibor beriladi, bulardan tashqari qomatni to'g'ri tuta bilishga o'rgatiladi. Bu jarayonga shaxsiy gigiena qoidalariga oid bilimlar qo'shib berish bilan tarbiya jarayoni yo'lga qo'yiladi (9,11). 12-15 yoshlilarda (5-9 sinflar) jismoniy mashqlar o'sayotgan yosh organizmga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun jismoniy sifatlarni rivojlanishiga qulay imkoniyatlar ochilgan bo'ladi. Jismoniy tarbiyaning jismoniy bilimlar berish vazifasi hayotda uchraydigan harakat malakalarini ratsional texnikasi bilan tanishtirish (gimnastika, engil atletika, sport o'yinlari, velosipedda yurish)ga oid oz bo'lsa ham nazariy tushuncha berishdir. Bu davrda bolalarni «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testining talablari va normalarini topshirishga tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish natijasida sport mahoratini oshayotganligini, jismoniy madaniyatni jamiyatdagi roli va ahamiyatini tushuntirish jarayoni yo'lga qo'yiladi. Asta sekinlik bilan tashkilotchilik qobiliyati takomillashtiriladi, musobaqa qoidalari o'zlashtiriladi, hakamlik qilish malakalari rivojlantiriladi va chiniqtirish maqsadida tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalanishga o'rgatish lozim bo'ladi 16-18 yoshdagi umumta'lim maktabi, akademik, kasb-hunar litseylari va kollejlarning o'quvchilari organizmi yoshi ulg'aygan sari baquvvatlashadi. Jismoniy tarbiya esa bu jarayonini yanada kuchaytirishga yo'naltiriladi. Jismoniy mashqlar bilan tizimli shug'ullanish ta'lim tizimining shu yoshdagilarida ish qobiliyatini yaxshilash, asosiy harakat faoliyatlari uchun chidamlilik zaqiralarini oshirish, o'z tanasini boshqara olish, kuch, tezkorlik, chaqqonlik va boshqa har tomonlama jismonan garmonik tarbiya alomatlarini chuqurlashtirishga e'tiborni qaratadi. Organizm o'sib borar ekan uning funktsional imkoniyatlarini oshib borishi ham tabiiy. Oldin egallangan harakat malakalari zaxirasi bazasida yangi, keyin egallanishi lozim bo'lgan harakat malakalari uchun poydevor yaratiladi. Bu yoshdagilarda ularning jismoniy madaniyat sohasidagi bilimlarni boyitish, sport trenirovkasi asoslari, sportchini o'z-o'zini nazorat qilishi qoidalariga o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar jismoniy tarbiyasi ularni jismoniy xarakterlarini amalga oshirishning tashkil etilgan pedagogik jarayonidir. Maktabdagi jismoniy tarbiyaga oid ishlar o'quvchilardan xavaskorlikni, tashabbuskorlikni, uyushqoqlikni talab qiladigan juda xilma-xil shakllari bilan farq qiladi. Ular o'quvchilarda tashkilotchilik ko'nikmalari, faollik, topqirlikni tarbiyalashga yordam beradi. Maktabda o'quvchilar jismoniy tarbiyasining maqsadi:

<https://conferencea.org>

1. Sog'lomlashtirish.
2. Xar tamonlama yetuk inson qilib tarbiyalash.
3. Vatan mudofaasiga hamda mexnatga tayyorlash.

Jismoniy tarbiyaning maqsadidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni sog'lomlashtirish, chiniqtirish, jismoniy rivojlantirish, xarakat malaka va ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari belgilanadi:

Sog'liqni mustaxkamlash, o'quvchilarni to'g'ri jismoniy rivojlantirishga va chiniqtirishga yordam berish. Tabiat omillari suv, quyosh, havo ta'sirida o'quvchilarni sog'ligini mustaxkamlash, chiniqtirish hamda organizmni kasalliklarga chidamliligini orttirish maqsadida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini imkoni boricha toza havoda o'tkazish yoki sport zallarini toza havo bilan ta'minlanishini tashkil etish zarur.

O'quvchilarni suv muolajalari, suzish va cho'milish mashg'ulotlarini olib borish hamda quyoshga toblanish tadbirlarini boshqarish sayrlar, ekskurtsiyalar va turizm mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Bu vazifa maktabdagi barcha jismoniy madaniyat va sport ishlarida eng muxim omil xisoblanadi. U xar bir o'qituvchining, pedagoglar jamoasining diqqat markazida bo'lish kerak. O'quvchilik davri bolalarning tez o'sish va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish davridir. Shuning uchun ham maktab o'quvchilarining jismoniy jixatdan normal rivojlanishi uchun iloji boricha ko'proq kuch sarflash kerak.

O'quvchilarning uyg'un rivojlanishida qomat muayyan ahamiyatga ega. Barcha ichki organlarning to'g'ri rivojlanishi va normal ishlashi qomat bilan bog'liqdir. Sog'liqni mustaxkamlash va organizmni chiniqtirishda tabiat omillardan keng foydalaniladi.

O'quvchilarga jismoniy mashqlar va sportga oid maxsus bilimlar berish jarayonida, ularda gigienik bilim va ko'nikmalari shakllantiriladi. Bularning hammasi bolalar sog'oligini mustaxkamlashga ularning gigiena qoidalarini bilishlari va ularga amal qilishlariga bevosita daxldor bo'lib, bunga maktab, oila, jamoatchilik hamda bolalar o'zlarining birgalikdagi harakatlari evaziga erishadilar.

Jismoniy mashqlarga va sport mashqlariga jismoniy tarbiya darslari, kun tartibidagi tadbirlar hamda to'garak mashg'ulotlarida o'rgatiladi. Uning natijasida bolalarning jismoniy rivojlanishi ta'minlanadi. Shuningdek, o'quvchilarda sportga qiziqishlar shakllantirilib, sport turlariga jalb etiladi.

Xarakat malakalari, ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, yangi xarakat turlariga va xarakat faoliyatiga o'rgatishda maktabning jismoniy madaniyat dasturi mazmuni shunday tuzilganki, o'quvchilar jismoniy madaniyat darslarida, uyda, jismoniy madaniyat to'garaklarida va sport to'garaklarida muntazam shug'ullanib yurish, yugurish, uloqtirish, tirmashish, muvozanat saqlash kabi xayotiy tadbirlar bolalarni xar tomonlama jismoniy rivojlanishiga, ularni mexnatga tayyorlashga yordam beradi. O'quvchilarda xarakat malaka va

<https://conferencea.org>

ko'nikmalarini shakllantirishda ularni jinsi, yoshi va jismoniy tayyorgarligi hamda shaxsiy qobiliyatiga qarab yondashish zarur.

Tezkorlik, kuch, epchillik, chidamlilik hamda egiluvchanlik har bir kishi uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlardir. Ular bolalarda harakat ko'nikmalarining shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Jismoniy mashqlarni qisqa yoki uzoq vaqt davomida turli sur'atda, turli murakkabliklar bilan o'tkazish yuqoridagi sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi.

Jismoniy tarbiyaning butun jarayoni bunday qimmatli ahloqiy va irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Umuman olganda barcha turdagi jismoniy mashqlar, o'yin harakatlari dovyuraklik va do'stlik xislarini tarbiyalashga yordam beradi. Shuningdek, bolalarda Vatanga muhabbat, vatanparvarlik xis-tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turganda va yurganda qomatni to'g'ri tutish ko'nikmalarini oshirish, qomatni to'g'ri shakllantirish murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir. Shunday ekan, bu soxada ijobiy natijalarga erishish uchun bola o'tirganda, tik turganda, yurganda qomatini to'g'ri tutishi xaqida g'amxo'rlik qilish zarur: jismoniy mashqlarni keng qo'llash kerak: jismoniy madaniyat dasrlari mazmuniga albatta qomatni yaxshilashga oid mashqlarni, mashg'ulotlargacha bo'lgan gimnastikani, jismoniy madaniyat vaqtlarini, badan tarbiyani kiritish, o'quvchilarga uyga tegishli vazifalar berish kerak.

Maktabda jismoniy tarbiyaning vazifasi bolalarni faqat maktabdagina emas, balki uyda ham jismoniy mashqlarni sistemali ravishda bajarishga odatlantirib borishdan iborat. Bu muxim vazifani amalga oshirish uchun bolalar bilan olib boriladigan barcha mashg'ulotlarni jonli, o'rganiladigan materialning mazmuni va shaklini qiziqarli, xayajonli qilish, mashg'ulot raxbarining samimiy muomilasi ostida o'tkazish, shug'ullanuvchilarning o'zaro do'stona hamkorlik qilishlari uchun sharoit yaratish zarur. O'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va jismoniy qobiliyatlariga ko'ra sport turlari bilan shug'ullanishga jalb etishda ularning jismoniy tayyorgarlik holati, ma'lum sport turiga bo'lgan iqtidori va antropometrik ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda ularni sport to'garaklariga jalb qilish shug'illanuvchi o'quvchilarni sport to'garaklarida yuqori natijalariga erishishini ta'minlaydi.

Jismoniy mashqlar o'quvchilarda xarakat malakalari va ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq vazifalarni xal etadi, xarakat apparatining rivojlanishiga yordam beradi, qon aylanish va moddalar almashinuvi jarayonini yaxshilaydi, nafas olishga ijobiy ta'sir etadi. Maktabdagi jismoniy tarbiyaga oid amaliy ishlarda qo'llaniladigan xarakatlar tezkorlikni, epchillikni, egiluvchanlik, kuchni, chidamlilikni rivojlantiradi va kishining yurish, yugurish, sakrash, muvozanat saqlash, uloqtirish, tirmashib chiqish kabi tabiiy xarakatlarini to'g'ri bajarish ko'nikmalarini mustaxkamlaydi.

<https://conferencea.org>

Jismoniy madaniyat darsining samarasi ko'pincha o'qituvchining tuzgan rejasining hayotiyligi, shug'illanuvchilar faoliyatini tashkillash uchun tanlangan usuliyati va uslublari, mavjud jixozlar va sport anjomlaridan, texnik vositalardan, sport inshootlaridan, shuningdek, havo xarorati, iqlim sharoiti, o'quvchilarning tayyorgarligi, ularning yoshi, individual xususiyatlarini xisobga olib, ulardan unumli faydalana olish bilan bog'liq.

Darsning tashkillanishi va ta'minlanganligi quyidagilarni

- 1) Tibbiy va gigiena sharoitini yaratish va unga rioya qilishni;
- 2) Moddiy-texnik jixatdan ta'minlanishi;
- 3) darsda o'quvchilar faoliyatini tashkillash usuliyatlarini to'g'ri tanlash orqali qo'yilgan vazifani unumli xal qilishni nazarda tutadi.

Jismoniy tarbiya darsini o'tkazishning tibbiy-gigienik sharoitini yaratishda jismoniy mashqlar bilan shug'illanish jarayonida yuzaga keladigan, sog'lomshtirish effektidan kelib chiqadigan bir butun kompleksli tadbirlar, tibbiy-gigienik sharoitidan kelib chiqadi. Mashg'ulotlarni o'tkazish joyini qat'iy belgilangan tibbiy-gigienik normalarga muvofiqlashtirish, sport zali uchun havo xarorati eng maqbul ko'rsatgich 14-16⁰ C da bo'lishi, tannafuslarda ochiq maydonlarga suv sepilishi, sport zallarining esa, oynalari ochilib, shamollatilishi va boshqalar. Inson o'pkasining normal havo vintelatsiyasi minutiga 4-6 l atrofidagi miqdorni tashkil etishi, yuqori intensivlikda bajarilayotgan mashqlarda (yugurish, sport o'yinlari) oranizmning havo yutish miqdori 10 l bo'lishi va undan oshishi mumkin. Shuning uchun mashg'ulot joylarini toza havo bilan ta'minlanishining ahamiyati muxim.

«Umid nihollari» bolalar sport o'yinlarining dasturi yildan-yilga kengaymoqda va Olimpiada dasturlaridagi sport turlarini ko'pchiligini qamrab olmoqda. Maktabning ommaviy sporti xozirgi kunga kelib O'zbekiston jismoniy tarbiya tizimida o'z o'rniga ega. Buning isbotini izohlashga xozirgi kunda hojat yo'q. Chunki, mamlakatimiz Prezidenti, respublika hukumati yosh avlod jismoniy "Kamolot"ini o'z siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirgan. Hozirgi kunda bu siyosat o'z natijasini namoyon qilmoqda va O'zbek sporti jahon sport maydonlarida kun sayin o'z nufuzini oshayotganligini namoyon qilmoqda. Bunga asosiy sabab mamlakat sportining beshigi bolalar sport maktabi o'quvchi yoshlarning ommaviy sportini rivojlantirishda to'g'ri yo'l tanlanganligidadir. Jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar maktab sportida ommaviylikga erishishni o'zining asosiy maqsadi qilib belgilaganligidadir. Shuning uchun ham jamiyatimizning har bir a'zosi, u yoshmi, qarimi sog'lom turmush tarziga oid bilimlar, uning yetakchi vositasi sport yoki jismoniy madaniyatga oid boshlang'ich bilimlar va amaliy malaka va ko'nikmalarni maktabdaligida egallash shart qilib qo'yilgan. Mamlakat sportini zamini umumiy ta'lim maktabi sportidan-sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli sifatida boshlanadi. Maktab sporti maktab seksiyalari mashg'ulotlari orqali, maktab ommaviy sporti esa fakultativ tarzida tashkillangan umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhlari,

<https://conferencea.org>

«Alpomish» va «Barchinoy» testi guruhlari hamda o'quvchilarning ommaviy sport sog'lomlashtirish tadbirlari orqali yo'lga qo'yilmoqda.

Umumiy ta'lim maktablari va davlat ta'limining boshqa o'rta va maxsus ta'limi tizimida sportning u yoki bu turi bilan sport maxoratini oshirish maqsadida shug'illanishni xoxlovchilar uchun sport seksiyalari tashkillanadi. Sport seksiyalari maktab o'quvchilaridan maktabdan tashqari sport muassasalarida shug'illanishni imkoniyati bo'lmagan, sportning u yoki bu turida shug'illanishga nisbatan qobiliyatli o'quvchilar uchun tashkillanadi. Seksiyani tuzishda shu seksiya uchun maktabdagi sharoit, uni tashkillash va olib boorish uchun mutaxassis o'qituvchining mavjudligi xisobga olinadi. Umumiy rahbarlik albatta maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi zimmasiga yuklatiladi. Zarur bo'lsa, imkoniyat yo'l qo'ysa, jamoatchilik asosida o'quvchilar bilan shug'illanishga qodir jamoatchi trenerlar, ota-onalar maktabning sport seksiyalari mashg'ulotlarini o'tkazish uchun jalb qilinishi xozirgi kun jismoniy tarbiya jarayoni amaliyotida ma'lum. Yuqoridagilardan tashqari xozirgi kunda katta sportni tark etgan maxorati yuqori sportchilar, BO'SM larning sport murabbiylari va ularda tarbiyalanuvchilar ham maktab sport seksiyasi faoliyatida ishtirok etishlari uchun zaruriy imkoniyatlar yaratilgan.

Maktab jismoniy tarbiya o'qituvchilari o'zlarining sport tayyorgarliklaridan kelib chiqib, mashg'ulot mashg'ulotlarini o'tkazadilar. Ayrim holatlarda maktabda pulli sport seksiyalarini tashkillashga ruxsat etiladi. Maktabdagi sport seksiyalarining umumiy soni MJTJsi kengashi, maktab pedagogika jamoasi kengashi va uning raisi maktab direktori tomonidan hal qilinadi.

Maktab sport seksiyasining tuzilishi. Har qanday sport seksiyasi o'z faoliyatini shu seksiyaning byurosi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali amalgam oshiriladi. Mutaxassislikga oid umumiy va maxsus adabiyotlarda sport seksiyasining tuzilishi va uning faoliyati mazmuniga oid yetarli darajadagi o'quv materiallari berilgan. Biz quyida umumta'lim maktablarida eng ko'p foydalanilayotgan gandbol sport turi bo'yicha maktab sport seksiyasi strukturasi chizma tariqasida tavsiya etamiz.

Gandbol sport seksiyasining strukturasi maktabning boshqa sport seksiyalari uchun ham talluqlidir. Har bir sport seksiyada qayd qilingan tayyorlov, kichik, o'rta, katta maktab yoshidagilar guruhlari bir nechtadan bo'lishi mumkin. Ularning tarkibidagi shug'illanuvchilar soni o'quvchilar Respublika «Yosh kuch» ko'ngilli sport jamiyatining maktab sport seksiyalari faoliyati nizomida ko'rsatilgan. Agarda har bir o'quv guruhi o'rtacha 20 nafardan shug'illanuvchini o'zida mujassamlashtirsa faqat o'g'il bolalar guruhining shug'illanuvchilari 100 nafarini tashkil qilishi mumkin. Ularga qizlar guruhidagilar soni qo'shilsa (100nafar) gandbol seksiyasining o'zi jami 200 nafar o'quvchini o'z tarkibiga birlashtiradi.

Sport seksiyasi kengashi o'rta, katta maktab yoshlaridan 11-15 nafar, tashkilotchilik, o'yin texnikasi va qoidasini yaxshi bilgan o'quvchilardan, jamoatchi-murabbiy va yo'riqchilardan tashkillanadi. Ular maktab gandboliga oid barcha ishlar : seksiya o'quv guruhlarini tuzish,

<https://conferencea.org>

o'yin maydonlarini jixozlash, ta'mirlash yangisini qurish, to'plarni tayyorlash, jamoatchi-yo'riqchi, jamoatchi-hakamlar tayyorlash, terma jamoalarni tuzish, musobaqalar, o'rtoqlik uchrashuvlari o'tkazish, taqdirlash, tuman (shahar) musobaqalarida ishtirok etish «buyurtma»larni, jamoalarni musobaqalarga tayyorlash, shug'illanuvchilarning shaxsiykartochkasini yuritish, jurnal bilan ishlash, razryadlar berish, «Alpomish» va «Barchinoy» testi talab normalarini topshirishga tayyorlash, ularni hujjatlarini tayyorlash, sport-mashg'ulotsi mashg'ulotlarining rejalarini tuzish va boshqa qator ishlarni yo'lga qo'yadi, uni ijrosini nazorat qiladi.

Shunday sport seksiyalarining kengashi maktabning barcha sport turlari bo'yicha tashkillangan seksiyalar faoliyatini boshqaradi.

Seksiyalarning tayyorlov guruhiga III-IV sinflar, kichik maktab yoshiga IV-V sinflar, o'rta maktab yoshiga VI-VII sinfdagilar, katta maktab yoshiga VIII-IX sinflarning o'quvchilari, terma jamoa esa VI-IX sinflarning o'g'il qizlaridan iborat qilib tuziladi.

Mashg'ulotlar haftada 2-3 marta 60-90 daqiqadan o'tkaziladi. Seksiyalarga yozuv sinfning jismoniy tarbiya tashkilotchilari orqali yoki maktabdagi e'longa ko'ra sport seksiyalariga «umumiy yozilish kuni» degan kunlari o'tkaziladi. Seksiyaga yozilgungacha o'quvchilar tibbiy nazoratdan o'tib bo'lgan bo'lishlari lozim. Musobaqalardan oldin yoki ma'lum kasallikdan tuzalgandan so'ng seksiyaga qatnaydigan o'quvchi maktabning tibbiy xodimi yoki poliklinikaning tibbiy nazoratidan o'tishi zarur.

Maktab sporti va sport mashg'ulotlari. Maktab sportini tashkillashtirish va sport mashg'ulotlarini rejalashtirish sport turlari bo'yicha sport seksiyalari byurolari tomonidan nazoratga olinadi. Hamda jamoatchi-yo'riqchilarga to'gridan to'g'ri uslubiy yordam ko'rsatiladi.

«Maktab sporti» sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli bo'lib o'quvchilar jismoniy madaniyati maktabda tashkillash va uni amalgam oshirilishiga baho berishda maktabning sport turlari bo'yicha tuman (shahar) musobaqalaridagi egallagan o'rniga qarab baholanadi. Aslida sinfdan tashqari ishlar keng ko'lamda yo'lga qo'yiladigan maktab pedagogika jamoasining ko'p qirrali faoliyatidan biri deb qaralishi lozim. Bunda yetakchi rolni maktab jismoniy tarbiya o'qituvchilari mehnati va maktabdagi sinfdan tashqari ishlarni ommaviyligiga qarab baholanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish birinchi navbatda maktab sporti seksiyalari faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish imkonini beradi. O'quv tarbiyaviy ishlardan sinfdan tahsqari ishlarni ajratishga yo'l qo'yilmasa yuqori samara beradi. Rejalashtirish sifatini yaxshi bo'lishi, uni ortiqcha qiyinchiliklar tug'dirmaydigan qilib tuzishni ahamiyati juda katta. Reja bajarila oladigan, bir tizimga bo'ysundirilishi va uni sekin asta amalgam oshirilishi nazarda tutilishi mazmuni bir-biri bilan bog'liqligi taqvim muddatlariga

<https://conferencea.org>

moslashtirilgan bo'lishi yoki bir chorak, yarim yilga mo'ljallanishi va uni ijrosiga erishish sodda mazmunga ega bo'lishligi rejalashtirishga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Maktab sport seksiyalari mashg'ulotlari o'z mazmuniga: tanlangan sport turi texnikasi va taktikasini o'rganishni turli xildagi sharoitda ularni takomillashtirishni seksiya a'zosini organizmini funksional holatini darajasini oshirishni jismoniy va ruhiy- ahloqiy sifatlarini takomillashtirishni oladi.

Sport ishining turli davrlarida sport mashg'ulotining mazmuni umumiy jismoniy tayyorgarlik bilan maxsus jismoniy tayyorgarlik bilan maxsus texnik tayyorgarlik orasidagi muvofiqlik nisbatan o'zgarib turadi. Maktab sport seksiyasining mashg'ulotlar jarayonini ham tayyorlov asosiy va o'tish davri deb davrlash zaruriyati mavjud. Yuqorida qayd qilingan jismoniy tayyorgarlik mashqlari maxsus mashqlar bilan mashg'ulot jarayonida davrlarda muvofiqlashtiriladi.

Umumta'lim maktabi o'quvchilarining jismoniy rivojlanishini o'rganish maqsadida kuzatuv va tadqiqot guruxlarida dastlabki va yakuniy testlar (60 metrga yugurish, 4x10 metrga mokisimon yugurish, baland turnikda tortilish, joyidan turib uzunlikka sakrash,) natijalari olindi. Tahlil qilingan natijalar yuqoridagi jadvallarda berilgan.

15-16 yoshli o'quvchilarning jismoniy rivojlanish bo'yichaolingan test sinovlari natijalaridan ayon bo'ldiki, 60 metrga yugurishning dastlabki natijalari kuzatuv guruxlarining 5-umumta'lim maktablari o'quvchilarida o'rtacha 9,48 soniya, 39-umumta'lim maktabi o'quvchilarida 8,39 soniyaga teng bo'ldi. Tadqiqot guruxlarida 1- umumta'lim maktabi o'quvchilarida o'rtacha 9,67 soniya va 26- umumta'lim maktabi o'quvchilarida 8,68 soniyaga teng bo'ldi.

Yakuniy olingan tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra 60 metrga yugurish dastlabki sinov bosqichida kuzatuv guruxida 5-umumta'lim maktablari o'quvchilarida o'rtacha 8,01 soniya, 39-umumta'lim maktabi o'quvchilarida 8,04 soniyaga teng bo'ldi. Tadqiqot guruxlarida 1-umumta'lim maktabi o'quvchilarida o'rtacha 7,93 soniya va 26- umumta'lim maktabi o'quvchilarida 7,91 soniyaga teng bo'ldi.

Bundan ko'rinib turibdiki 60 metrga yugurish, kuzatuv guruxi 5-umumta'lim maktabi o'quvchilarida o'rtacha 1,47 soniyaga, 39- umumta'lim maktabi o'quvchilarida dastlabki natijalarga nisbatan o'rtacha 0,35 soniyaga, tadqiqot guruxida 1- umumta'lim maktabida o'quvchilarida 1,74 soniyaga 26- umumta'lim maktabi o'quvchilarida 0,77 soniyaga yaxshilangani kuzatildi.

4x10 metrga mokisimon yugurishning dastlabki bosqichida kuzatuv guruxida 5- umumta'lim maktablari o'quvchilarida o'rtacha 9,48 soniya, 39-umumta'lim maktabi o'quvchilarida 9,51 soniyaga teng bo'ldi. Tadqiqot guruxlarida 1- umumta'lim maktabi o'quvchilarida o'rtacha 9,67 soniya va 26- umumta'lim maktabi o'quvchilarida 9,62 soniyaga teng bo'ldi.

<https://conferencea.org>

Yakuniy olingan tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra 4X10 metrga mokisimon yugurish kuzatuv guruxida 5- umumta'lim maktablari o'quvchilarida o'rtacha 9,04 soniya, 39-umumta'lim maktabi o'quvchilarida 8,90 soniyaga teng bo'ldi. Tadqiqot guruxlarida 1- umumta'lim maktabi o'quvchilarida o'rtacha 8,91 soniya va 26- umumta'lim maktabi o'quvchilarida 8,81 soniyaga teng bo'ldi.

Bundan ko'rinib turibdiki 4x10 metrga mokisimon yugurish, kuzatuv guruxi 5-umumta'lim maktabi o'quvchilarida dastlabki sinov natijalariga qaraganda o'rtacha 0,44 soniyaga, 39-umumta'lim maktabi o'quvchilarida dastlabki natijalarga nisbatan o'rtacha 0,61 soniyaga, tadqiqot guruxida 1- umumta'lim maktabida o'quvchilarida 0,76 soniyaga 26- umumta'lim maktabi o'quvchilarida 0,81 soniyaga yaxshilangani kuzatildi.

Baland turnikda tortilish, dastlabki bosqichida kuzatuv guruxida 5- umumta'lim maktablari o'quvchilarida o'rtacha 11,3 martadan, 39-umumta'lim maktabi o'quvchilarida 12,3 martadanga teng bo'ldi. Tadqiqot guruxlarida 1- umumta'lim maktabi o'quvchilarida o'rtacha 10,8 martadan va 26-umumta'lim maktabi o'quvchilarida 10 martadan tortilishga teng bo'ldi. Yakuniy olingan tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra Baland turnikda tortilish kuzatuv guruxida 5-umumta'lim maktablari o'quvchilarida o'rtacha 13,1 martadan, 39-umumta'lim maktabi o'quvchilarida 13 martadanga teng bo'ldi. Tadqiqot guruxlarida 1- umumta'lim maktabi o'quvchilarida o'rtacha 15 martadanga va 26- umumta'lim maktabi o'quvchilarida 15 martadanga teng bo'ldi.

Bundan ko'rinib turibdiki Baland turnikda tortilish, kuzatuv guruxi 5-umumta'lim maktabi o'quvchilarida dastlabki sinov natijalariga qaraganda o'rtacha 1,8 martaga 39- umumta'lim maktabi o'quvchilarida dastlabki natijalarga nisbatan o'rtacha 0,7 martaga, tadqiqot guruxida 1- umumta'lim maktabida o'quvchilarida 4,2 martaga 26-umumta'lim maktabi o'quvchilarida esa o'rtacha 5 martaga yaxshilangani kuzatildi.

Olingan ma'lumotlarni taxlilidan ma'lum bo'ldiki, tadqiqot va kuzatuv guruxlarida dastlabki va yakuniy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha olingan test ko'rsatkichlarda ikkala guruxda ham natijalar ijobiy tomonga o'zgargan.

Tadqiqot va kuzatuv guruxlaridagi olingan ko'rsatkichlarini taqqoslaganimizda tadqiqot guruxi o'quvchilari kuzatuv guruxidagi tengdoshlariga nisbatan jismoniy tayyorgarligi yaxshiroq ekanligi ma'lum bo'ldi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini taxlilidan ko'rinib turibdiki, 15-16 yoshli o'quvchilar bilan o'tkaziladigan sport to'garaklari jarayonida, ularning jismoniy sifatlarini yaxshilanayotganligi aniqlandi.

Bu jismoniy sifatlarni yaxshilanishi ularni tabiiy biologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi natijasida bolalarning salomatligi mustaxkamlanishiga zamin yaratadi. Bu esa bugungi kundagi

<https://conferencea.org>

yosh avlodni tarbiyalash bilan birgalikda sog'lom turmush tarzini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. Ханкельдиев, Ш. Х., & Хасанов, Ш. (2021). Особенности методики подготовки юных боксеров на предсоревновательном этапе. In Наука сегодня: проблемы и пути решения (pp. 93-94).
2. Shoxjahon, X. (2022, October). HARAKATGA O'RGATISHNING USLUBIY TAMOIYILLARI. In E Conference Zone (pp. 39-51).
3. Shoxjahon, X. (2022, October). TA'LIM JARAYONIDA HARAKATGA O'RGATISHNING METODLARI VA ETAPLARI. In E Conference Zone (pp. 19-31).
4. Ханкельдиев, Ш. Х., & Хасанов, Ш. (2021). Акцентированная физическая подготовленность юных боксеров на начальном этапе обучения. In НАУКА СЕГОДНЯ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ (pp. 41-43).
5. Valievich, D. S., & Iqbolakhan, A. (2022, November). PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF IMPROVING PHYSICAL FITNESS OF GENERAL EDUCATION SCHOOL STUDENTS (IN THE EXAMPLE OF PRIMARY CLASSES). In E Conference Zone (pp. 1-13).
6. Jalolov, S., & Abduraxmonov, S. (2022). Evaluation of the development of older school children on health tests. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 927-930.
7. Jalolov, S., & Ilyasova, M. (2022). Resistant to the development of physical education in the lessons. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(5), 870-874.
8. Haydaraliev, X., & Malikov, I. (2022, June). LOADING AND ITS NORM IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS. In E Conference Zone (pp. 60-63).
9. Haidaraliev, H., & Nizamova, S. (2022). AGE-RELATED FEATURES OF MOTOR QUALITIES IN YOUNGER SCHOOLCHILDREN. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(05), 94-100.
10. Хайдаралиев, Х. Х. (2022). ТЕХНОЛОГИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ АНТИКОРРУПЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ. World scientific research journal, 2(2), 202-210.
11. Haydaraliev, X., & Isakov, D. (2022). Methods of Controlling the Physical Loads of Players. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 8, 133-135.
12. Хайдаралиев, Х. Х. (2022). РОЛЬ РИТМИЧЕСКОЙ ГИМНАСТИКИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ ДЛЯ ДОШКОЛЬНИКОВ. Academic research in educational sciences, 3(3), 591-599.
13. Avazbek, M. (2022, October). МАКТАБГАЧА ТА'LIM MUASSASALARIDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKILLASHNING DIDAKTIK PRINTSIPLARI. In E Conference Zone (pp. 32-44).

14. Agzamovich, M. A. (2021). Monitoring of the Motor Readiness of the Students of the National Guard Courses. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(12), 108-110.
15. Temur, E. DEVELOP THE QUALITIES OF STRENGTH AND AGILITY IN YOUNG PLAYERS.
16. Убайдуллаев, Р. (2021). ОЦЕНКА ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ УЧАЩИХСЯ ШКОЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. ББК 75.1 А-43 Ответственный редактор, 277.
17. Murodilovich, U. R. (2022). PEDAGOGICAL CONTROL OF PHYSICAL AND HEALTH WORK IN RURAL GENERAL SCHOOLS. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.5 Pedagogical sciences).
18. Ubaydullaev, R., & Abdullaev, U. (2022, June). METHODS OF ASSESSING THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF SCHOOLCHILDREN. In *E Conference Zone* (pp. 74-78).
19. Rahimjan, U. (2022). TERRITORIAL PECULIARITIES OF DIFFERENTIAL ASSESSMENT OF PHYSICAL FITNESS OF RURAL SCHOOLCHILDREN. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 9, 58-66.
20. Хакимов, С. Т. (2021). Ёш волейболчилар жисмоний тайёгарлигини ўйин ихтисослиги бўйича такомиллаштириш. *Ташкилий кўмита*, 234.
21. Khakimov, S. T. (2022). THE WAYS TO ENHANCE THE TRAINING PROCESS OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(2), 118-135.
22. Kholmiraevich, A. J. (2021). Innovations In Fitness Works and Physical Education. *Texas Journal of Medical Science*, 2, 4-5.
23. Kholmiraevich, A. J. (2022). Innovations in Fitness Works and Physical Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 6, 159-161.
24. Xolmirzaevich, A. J. (2022). JISMONIY MADANIYAT DARSINING MAZMUNI. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 8, 170-180.
25. Normatovich, U. Z. (2022). THE LEVEL OF PHYSICAL DEVELOPMENT AND PHYSICAL FITNESS OF STUDENTS IN GRADES 9-11. *Conferencea*, 9-16.
26. Mamirjan, Y. (2022). DEVELOPMENT OF VALELOGIC PHYSICAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS OF PHYSICAL CULTURE. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 8, 57-62.
27. Yuldashev, M., & Yakubova, G. (2022, October). ADAPTIV JISMONIY TARBIYADA QAYTA TIKLANISH (REABILITATSIYA). In *E Conference Zone* (pp. 14-17).
28. Yuldashev, M., & Qobuljonova, M. (2022). GOALS AND OBJECTIVES OF CHOREOGRAPHIC TRAINING IN GYMNASTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(05), 76-81.
29. Нишонова, Д. Т. (2022). ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ВА СПОРТ МАШҲУЛОТЛАРИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ТАЛАБАЛАР ОНГИГА

- СИНГДИРИШДА ПЕДАГОГИК ЁНДАШУВЛАР. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(9), 75-76.
30. Nishonova, D. (2022). Pedagogical possibilities for further improving physical culture in the development of a healthy lifestyle for talented girls in higher education institutions. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 7, 198-200.
31. Tojimatovna, N. D. (2022). TALABA QIZLARDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIK SALOMATLIKNI YAXSHILASHNING ASOSIY VOSITASIDIR. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(8), 543-546.
32. Tojimatovna, N. D. (2022, May). SOGLOM TURMUSH TARZI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 4, pp. 282-285).
33. Tojimatovna, N. D. (2021). Means Of Shaping the Health and Healthy Lifestyle of University Student Girls. *Texas Journal of Medical Science*, 2, 1-3.
34. Ogli, Z. U. M., & Ogli, P. K. D. (2020). УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБИ 7–8 СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ЖИСМОНИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНИШИГА БОҒЛИҚЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, (4), 693-697.
35. Патиддинов, К. Д. (2022). Сравнительная динамика показателей физической подготовленности детей младшего школьного возраста с нормативами тестов здоровья “Алпомиш”. In *Актуальные проблемы науки: взгляд студентов* (pp. 297-299).
36. Khairullo, A., & Mohinur, R. (2022). Analysis of Physical Development Indicators. *Eurasian Research Bulletin*, 13, 8-14.
37. Guyokhon, Y., & Mahliyo, A. (2022). O'SMIR YOSHDAGI BOLALAR NAFAS OLIH ORGANI KASALLIKLARINI JISMONIY TARBIYA VOSITALARI BILAN DAVOLASH. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 8, 63-72.
38. Rasul, H., & Zulfiyakhon, M. (2022). FEATURES AND IMPORTANCE OF ACROBATIC EXERCISES. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 8, 31-39.
39. Sherzod, I. (2022). THE CONTENT OF THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR THE FORMATION OF FAMILISTIC COMPETENCE IN STUDENTS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 8, 40-46.
40. Zakhidjon, U., & Odinakhan, B. (2022). METHODS OF EDUCATION OF THE PHYSICAL QUALITIES OF PRE-SCHOOL CHILDREN THROUGH ACTIVITY GAMES. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 145-157.
41. Shoxjaxon, X. (2022, October). HARAKATGA O'RGATISHNING USLUBIY TAMOIYILLARI. In *E Conference Zone* (pp. 39-51).
42. Rasuljon, X., & Qurvonoy, A. (2022, October). 5-6 SINF O 'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA JISMONIY MASHQLARNING O 'RNI. In *E Conference Zone* (pp. 18-29).

43. Guyokhon, Y. (2022, November). INFLUENCE OF METABOLIC THERAPY ON THE FUNCTIONAL STATE OF ATHLETES. In E Conference Zone (pp. 24-33).
44. Avazbek, M. (2022, October). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKILLASHNING DIDAKTIK PRINTSIPLARI. In E Conference Zone (pp. 32-44).
45. Rasuljon, K., & Nomozbek, M. (2022, November). EDUCATION AND DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF YOUNG VOLLEYBALL PLAYERS THROUGH ACTIVE GAMES. In E Conference Zone (pp. 14-23).
46. Shoxjaxon, X. (2022, October). TA'LIM JARAYONIDA HARAKATGA O'RGATISHNING METODLARI VA ETAPLARI. In E Conference Zone (pp. 19-31).
47. Азимов, А. М., & Нурышов, Д. Е. (2011). Системный контроль с использованием методов моделирования в тренировочном процессе единоборцев. Вестник спортивной науки, (6), 63-64.
48. Азимов, А. М., & Нурышов, Д. Е. (2011). Системный контроль с использованием методов моделирования в тренировочном процессе единоборцев. Вестник спортивной науки, (6), 63-64.
49. Azimov, M. I., & Azimov, A. M. (2013). Способ палатопластики поперечным рассечением мягкого неба с продольным соединением раны у больных с врожденными расщелинами неба. UKRAINIAN JOURNAL OF SURGERY, (1.20), 51-54.
50. Азимов, А., Азимова, М., & Меликузиев, А. (2021). Разработка научных основ подготовки спортивного резерва. Общество и инновации, 2(8/S), 283-286.
51. Азимов, А. М., Меликузиев, А. А., & Азимова, М. К. (2021). Инновационные преобразования в педагогике физической культуры и спорта.
52. Ismoilov, S. D. (2022). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARDA OILAVIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING O 'ZIGA XOS MUХИМ JIXATLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODOICAL JOURNAL, 3(5), 96-100.
53. Ismoilov, S. (2021). SPECIFIC FEATURES OF FORMATION OF FAMILY VALUES IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 693-696.
54. Туйчиев, А. И., & Сидикова, Г. С. (2022). ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ И ВОСПИТАНИИ СОВРЕМЕННОГО ПОДРОСТКА. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODOICAL JOURNAL, 3(6), 190-198.
55. Ashurali Ibragimovich Tuychiyev (2022). O'QUVCHILARDA INTIZOMIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Academic research in educational sciences, 3 (2), 896-901.
56. Yuldashev, M. (2021). INNOVATIVE ASPECTS FOR HEALTHY LIFESTYLE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SPORTS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(05), 102-107.
57. Ma'mirjon, Y., & Saminjon, X. (2022). MAKTAB YOSHIDAGILAR HARAKAT AKTIVLIGI (FAOLLIGI) NING ME'YORI. Conferencea, 75-78.

<https://conferencea.org>

58. Yuldashev, M., & Qobuljonova, M. (2022). GOALS AND OBJECTIVES OF CHOREOGRAPHIC TRAINING IN GYMNASTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(05), 76-81.
59. Hamrakulov, R. (2021). THE IMPORTANCE OF THE ORGANIZATION OF PHYSICAL CULTURAL ACTIVITIES BASED ON ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(05), 114-119.
60. Khamrakulov, R., & Abduzhalilova, K. (2022). FEATURES OF PHYSICAL EDUCATION IN GRADES 5-6 OF SECONDARY SCHOOL. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(05), 82-90.
61. Р.Хамроқулов, & Н.Мухаммадов. (2022). ВОЛЕЙБОЛЧИЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРИНИ ВА ХАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАР РИВОЖЛАНТИРИШИ . *World Scientific Research Journal*, 2(2), 185–192. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/93>
62. Hamroqulov, R., & Nishonov, S. (2022). Methods of increasing physical faiths during the training of football players. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 8, 130-132.
63. Khamrakulov, R., Karakulov, K., & Jabbarov, A. (2019). TECHNOLOGY TO IMPROVE THE DURABILITY OF CONCRETE IN THE DRY HOT CLIMATE OF UZBEKISTAN. *Problems of Architecture and Construction*, 2(1), 74-77.
64. Hamrakulov, R. PEDAGOGICAL BASES OF FORMATION OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS TRAINING IN HIGHER EDUCATION SYSTEM.
65. Hamrakulov, R. PEDAGOGICAL BASES OF FORMATION OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS TRAINING IN HIGHER EDUCATION SYSTEM.
66. Yakubova, G. K. (2021). MONITORING OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES IN CONDITIONS OF HYPERTHERMIA. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktika*, 1(2).
67. Kuchkarovna, Y. G. Y. (2022). Bolalarda Bronxid Kasalligini Davolash Jismoniy Tarbiyasi. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 4, 1-4.
68. Tuychieva, I. I. (2018). Mechanisms Ensuring Children's Thought Activity Development at Preschool Education Process. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
69. Makhmutovna, T. K., & Ibragimovna, T. I. (2020). Specific features of the pedagogical process focused on increasing the social activity of youth. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(6), 165-171.
70. Туйчиева, И. И. (2019). Вопросы обеспечения активизации мыслительной деятельности детей в процессе дошкольного образования. In *PSYCHO-PEDAGOGICAL PROBLEMS OF A PERSONALITY AND SOCIAL INTERACTION* (pp. 22-25).
71. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. *湖南大学学报 (自然科学版)*, 48(8).
72. Tuychieva, I. (2015). The concept of pedagogical innovation in modern education. *The Advanced Science Journal*, 87-90.

<https://conferencea.org>

73. Ibragimovna, T. I. (2021). LEGAL AND REGULATORY FUNDAMENTALS OF REFORM OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.
74. Tuychiyeva, I. I. (2017). Question of Using Linguo-cultural Material for Learning Native Tongue in Professional Colleges. Eastern European Scientific Journal, (4), 84-88.
75. Tuychiyeva, I. I. (2017). Question of Using Linguo-cultural Material for Learning Native Tongue in Professional Colleges. Eastern European Scientific Journal, (4), 84-88.
76. Туйчиева, И. И., & Ганиева, Г. В. (2016). ХАРАКТЕРИСТИКА ПРИНЦИПОВ ПЛАНИРОВАНИЯ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ. Учёный XXI века, (11 (24)), 48-53.